

YOSHLARNING HUQUQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, QASHQADARYO VILOYATI PROKURATURASI MISOLIDA

Rajabov Farrux Alisherovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy tarbiyasini tashkil etish, uning mohiyatini anglash, huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalari ko`rib chiqiladi hamda muhokama etiladi.

Kalit soʻzlar: Huquqiy ong, madaniyat, burch, targ`ibot, yoshlar.

KIRISH

Jamiyatning har bir aʼzosi oʻz huquq va burchlarini hamda masʼuliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamogʻi lozim. Fuqarolarimizning dunyoqarashi, tafakkuri mamlakat hayotiga, yangilanishlarga mos ravishda oʻzgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Ayon boʻlmoqdaki, odamlarimizning huquqiy madaniyati davlat va jamiyat taraqqiyotining bugungi talablariga toʻla javob beradi, deb boʻlmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan joriy yilda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi farmon mazkur yoʻnalishda oldimizda turgan muhim vazifalarni belgilab bergan muhim hujjat boʻldi.

Fuqarolarning huquqiy bilimlari ongi va madaniyati yuksak darajada bo'lsagina, ular ijtimoiy hayotda bo'layotgan o'zgarishlarga faol munosabatda bo'lishadi, shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishi mumkin bo'ladi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish, o'z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o'tkazish, davr talablaridan kelib chiqib, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to'siq bo'layotgan me'yorlarni bekor qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi dinamik xarakterga ega bo'lib, har 3-4 yilda ma'lum darajada yangilanish xususiyatiga ega. Shu o'rinda, bugungi kunda mazkur sohada mavjud ayrim kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etib borilsa, nisbatan qisqa muddatlarda mamlakatimizda qonun ustuvorligining yanada mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi doimo dolzarb muammo sifatida e'tirof etiladi. Uning ikkinchi muhim jihati esa yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning rolidir.

Huquqiy tarbiya yoshlikdan boshlanmog'i lozim. Birgina misol sifatida shuni aytib o'tish kerakki, bosh qomusimiz hisoblangan konstitutsiyaning mazmun-mohiyati yoshligimizdan singdiriladi. Qolaversa, milliy ramzlarimiz bo'lmish madhiya, bayroq, gerbning kimlar tomonidan yaratilganligi, ularning qanday ma'noni anglatishi, unga xurmat nigohi bilan qaralishi, asrab-avaylashini bog'cha yoshidagi bola ham biladi. Bu bizning ongu- shuurimizga shu darajada singanki chiqarib tashlashning iloji yo'q. Ana shu tarzda insonning huquq va majburiyatlarini yoshlikdan singdirib borish bu kelajak uchun yaxshi qadam bo'ladi.

Huquqiy tarbiya hamisha davlatning siyosat, iqtisodiyot va ahloqqa nisbatan o'z nuqtayi nazarini aholiga aniq yetkazib berishdagi eng ishonchli va samarali vositasi hisoblangan.

O'quvchi yoshlarga huquqiy bilim berishning asosiy maqsadi, ularda huquqiy tushunchalarni shakllantirish va shu asosda huquqiy tarbiyaga erishishdan iboratdir.

Huquqiy bilim olish jarayonida o'quvchilar Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan o'z huquq va yerkinliklarini bilish, ulardan foydalanish va hayotga tatbiq etishga erishishi lozim [3].

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat ta'lim muassasalari, balki oiladan boshlanadi. Huquqiy bilimlar hayotda, har xil aniq vaziyatlarda to'g'ri yo'nalish olish, ruxsat yetilgan va taqiqlangan narsalar o'rtasidagi chegarani topa bilish, o'z huquq va manfaatlarini himoya etishning qonuniy yo'llari va vositalarini tanlashga o'rgatadi.

Huquqiy bilimlar siyosiy saviyani kengaytiradi, e'tiqodlar shakllanishiga, hayotdagi huquqiy xodisalarni to'g'ri tushunish, huquqiy talablarga ongli ravishda rioya yetish, barcha fuqarolarning huquq normalari (qoidalari)ga amal qilish uchun faol kurashishga ko'maklashadi [4].

Har bir shaxs o'z huquq va yerkinliklaridan foydalana bilsa, tushunsa, ko'plab muammolarning oldi olinadi. Qolaversa, o'zgalarning ham huquqlariga xurmat nigohi bilan qaraydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir fuqaroga huquqiy savodxonlik nafaqat javobgarlikka duchor bo'lmaslik uchun, balki, avvalo, o'z huquqlarini himoya qilish, qonun bilan belgilangan qo'shimcha afzalliklardan foydalanish yoki jamiyat va davlat oldidagi o'z majburiyatlarini sidqidildan bajarish uchun ham kerak bo'ladi. Ya'ni, huquqiy bilimlarni o'zlashtirish uchun turtki sifatida qonun oldidagi qo'rquv emas, balki unibilishdan rag'bat topish jamiyat va davlat rivoji uchun ko'proq manfaat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati prokuraturasi ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ushbu masalalarga alohida urg'u berib kelmoqda. Zero huquqiy targ'ibot orqali fuqarolarning huquqiy axborotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, birinchidan, ularning ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida ongli va faolishtirok etishlari sharti bo'lsa, ikkinchidan, ularning farovon turmush tarzini, umumiy madaniyatini shakllantirish, uchinchidan, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamiyatda va kishilararo munosabatlarda osoyishtalik, o'zaro teng huquqli

hamkorlikni, ya'ni, bir so'z bilan aytganda adolatli, ma'nan barkamol va yuksak huquqiy madaniyatli jamiyatni qurish omilidir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Eshonqulov F. Huquqiy ong yuksalsa, jamiyat taraqqiyotiga yo'l ochiladi "Adolat" gazetasi. № 7/ 2019
2. Kazakov A. "Yoshlar hayotida huquqiy ma'rifatning o'rni". "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi. <https://adolatmarkazi.uz/uz/news/news/eslar-aetida-ukukij-marifatning-urni>
3. www.ziyonet.uz
4. www.lex.uz